


BOSHLANG`ICH TA'LIMDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH MASALALARI YUZASIDAN METODIK TAVSIYA



*Soliyeva Umidaxon Abdumuhtarovna
Andijon viloyati Xo'jaobod tumani
24-umumiy o'rta ta'lif muktabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lif maktablarida boshlang`ich ta'linda olib borilayotgan chora-tadbirlar, o`quvchilarni o`qitishda interfaol metodlardan foydalanish masalalari hamda fanlarni o`qitish bo`yicha tavsiyalar. Interfaol metodlardan namunalar bilan yoritilgan.

Kalit so`zlar: boshlang`ich ta'lif, tabiatshunoslik, interfaol ta'lif, tabiat, o`lka, "Qush, hayvon, gul, daraxt, meva, sabzavot" o'yini.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o'zining "Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak"-asarida ta'lif va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamонавији usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar axvoli Tanqidiy tahlil qilib, bir qator vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar. Ulardan biri ta'lif-tarbiya jarayonini tubdan isloh qilish sanaladi.

So'nggi yillarda ta'lif-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani va madaniyatining ilg'or yutuqlarini jamlagan, o'tmish ajododlarimiz aql-zakovoti mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamонавији ta'lif-tarbiya berish uslublarini shakllartirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nан barkamol avlodga ta'lif-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy datsuri", "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun hamda "Maktab ta'llimini rivojlantirish Davlat umummiliy dasturi", "2008-2012 yillarda uzuksiz ta'lif tizimi mazmunini modernizatsiyalash va ta'lif-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish Davlat dasturi", 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida, 2030-yilgacha taraqqiyot strategiyasi va boshqa me'yoriy hujjatlarda uzuksiz ta'lif tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo'lib, bu esa ta'lif jarayonida o'quvchilar bilan ishslash, ularni barkamol avlod sifatida shakillantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bo'lmoqda.

Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "biz ta'lif va tarbiya tizimining barcha bo'g'lnlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillash-tirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lif amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasıdir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning

bilimlarni ongли o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi.

Ilm-fan yutuqlari va ularning insonlar hayotidagi o'rni rivojlangan mamlakatlar mакtab ta'limi mazmuni va strukturasiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o'quv soatlari keskin qisqartirildi, o'quv materiallari mazmuni modernizatsiya qilindi. Turli o'quv predmetlarini o'qitishda soatlarning qisqarishi, o'quv materiallari mazmunining ilmiy jihatdan murakkablashishi natijasida o'quvchilarga qo'yilayotgan talablar kuchaydi, ta'lim sifatida birmuncha pasayishlar kuzatilmоqda. O'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishida sodir bo'layotgan bunday pasayishlar yosh avlodning intellektual rivojlanishiga ta'sir etmay qolmaydi. Bu holat esa o'qituvchilardan o'quvchilarga bir fan doirasida bog'liqliklar asosida turli hodisalarini o'rganishni taqozo etadi. Tabiat hodisalarini, ularning tuzilishi, mohiyati va funksiyalarini, qonuniyatlarini o'rganish o'quvchilar tafakkurida qiylash, analiz va sintez, abstraktsiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida fanning tabiat va jamiyat to'g'risidagi yangi fundamental hamda amaliy tadqiqiga oid yo'nalishlarini rivojlantirish, yuqori malakali, ilmiy salohiyatga ega pedagogik kadrlar tayyorlash, ularni jahon fani integratsiyasi darajasida ilmiy jihatdan savodxonligini va mahoratini oshirish shu asosda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya mazmunini yangilash, sifat va samaradorligini ko'tarish, har bir fan bo'yicha o'quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish ta'kidlangan. Erkin fikrlovchi, ijodkor, mamlakatimizning mustaqillik mafkurasiga sadoqatli bo'lган barkamol shaxsni tarbiyalash boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda fanlararo aloqadorlik qonuniyatlarining yaratilishi, aloqadorlik tizimining tarkib topishi ta'limda istiqbolli vazifalar yechimini ta'minlaydi. Fanlararo aloqadorlik nazariyasining taraqqiyotida tabaqa lashtirilgan holat hukm sursa ham amaliyotda integratsiya, o'zaro aloqadorlik fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan fanlararo aloqadorlik muammolarini hal etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy hayot talabidir. Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi

Umumta'lim maktablarida boshlang`ich ta'limda mavzularni o`qitishda interfaol texnologiyalarni joriy etish o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish uchungina xizmat qilibgina qolmay balki, ularning rivojlanishlarini amalga oshiruvchi, ularni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, mustaqil ish yuritishga, o'ziga va imkoniyatlariga ishonishlariga, yangiliklarni o'zlashtirishlariga va yaratuvchanlikka undaydi. Bu jarayonda o'quvchilar zerikmaydilar.

Boshlang`ich sinflarda tabiatshunoslik fanini o`qitishda o`quvchilarni jonli tabiatdagi mavsumiy o`zgarishlar haqidagi tasavvurni shakllantirish orqali o`quvchilarda go'zal diyormizga xos jonli va jonsiz tabiat, o'simliklar va

hayvonot dunyosi haqida tasavvurlar shakllantirib borish borasidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar tahlil etilgan. Bu orqali o`quvchilarini tabiat bilan tanishtirish, jonli mavjudotlarga qiziqtirish hamda ularga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni, ularni parvarish qilishda kattalarga yordam berishni o'rgatishdan iborat.

Shunday ekan tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim;

- o`quvchilarini o'z o'lkasini sevishga o'rgatish,

- tabiat bilan tanishtirish orqali o`quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish,

- o`quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish,

- o'zining , tengdoshlari va kattalarning meqnatini qadrlashga o'rgatish,

- tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, qayol, tasavvur, nutq, diqqat),

- o`quvchilarning hissiyotini irodasini rivojlantirish,

- tabiat in'om etgan nematlarni avaylab asrashga o'rgatish.

Yuqoridaq vazifalardan kelib chiqqan qolda, o`quvchilarini qar tomonlama tarbiyalashda tabiat orqali - aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, meqnat, ekologik, iqtisodiy tarbiya berish lozim.

Tabiat bilan tanishtirish davomida o`qituvchilar rivojlantiruvchi muhit asosida tajriba ishlarini ham tashkil etish orqali o`quvchilar bilan tabiat hodisalarini kuzatish, qanday? qanday qilib? nega unaqa? kabi savollarni o`quvchilar tahlil eta olishiga ko'maklashadilar.

O`quvchilarini tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida noan'anaviy ta'limiy o'yinlardan foydalanish ham mumkin.

"Qush, hayvon, gul, daraxt, meva, sabzavot" o'yini

Maqsad: Jonivorlar, parrandalar, gullar, sabzovotlarning nomlarini topib aytishga o'rgatish. Borishi:O`qituvchi o`quvchilarga koptokni otadi, "Qush" desa, o`quvchi-"Bedana" deb javob beradi.

O`qituvchi "Hayvon" desa, o`quvchi "bo'ri", "Gul" desa, o`quvchi "Atirgul" deb javob beradi, "Daraxt" desa, o`quvchi "Chinor" deb javob beradi, "Meva" desa, o`quvchi "Olma" deb javob beradi, "Sabzovot" desa, o`quvchi "Sabzi" deb javob beradi. O'yinda barcha o`quvchilar faol ishtirop etadilar.

"Sevimli jonivorlar" Har bir o`quvchi, agar iloji topilganda, qanday jonivorga aylanib qolishini hohlashini aytadi. Hayvonning nomi unga xos bo'lgan harakatlar bilan ko'rsatiladi.

O`quvchilarning fikrlashi va hissiyotining yuqoriligi ularda birgalikda qayg'urish, kechayotgan hodisalarga mansublik hissini keltirib chiqaradi. SHu sababli o`quvchilarda atrof-muhit hodisalari va odamlarning hatti- harakatlariga qiziqishni ilk o`quvchilik davridan uyg'otish va ularga nisbatan hissiy-ijobiy munosabatni shakllantirish talab etiladi.

Tabiatning rang-barangligi, foydali va zararli tomonlarini tanishtirib borishda interfaol usullardan foydalanish orqali o`quvchini ijodiy izlash, o'z fikrini bayon etishga o'rgatish bilan birga, tabiatni asrab-avaylash,

rivojlantirish, boyitish lozimligini o'rgatib boramiz.

Darhaqiqat, integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta'limga maqsadlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o'quvchining vaqtini, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo'riqishlarning oldi olinadi, ta'limga samaradorligi oshadi. O'quvchilar zarur ko'nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o'quv predmetlari mazmunini uyg'unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang'ich ta'limga integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.
2. Asaulyuk E.P. Integrirovanniy podxod v obuchenii mladshix shkolnikov // Perspektive nauki. 2011. №10 str.222-226
3. Jurayev, j. s. o. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 11-14.
4. Sulaymonov, J. (2021) Abdurahmon Ibn Xaldunning Tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//a cadem ic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
5. Sulaymonov, J. B. (2021). Ibn Xaldunning "Muqaddima" asarida jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omillar talqini. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 732-737.
6. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - Toshkent, Universitet, 1998
7. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. - Jizzax: 2007.